

2021- yil mart



BUXORO VILOYATIDA O'RTA MAXSUS KASB-HUNAR TA'LIMI TIZIMI



**Buxoro Viloyati
Statistika Boshqarmasi**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 6-sentyabrdagi “Professional ta‘lim tizimini yanada takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-5812-son farmonida 2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasida belgilangan vazifalarni amalga oshirish, mehnat bozori talablariga mos yuqori malakali kadrlarni tayyorlash, ta‘lim sifatini baholashning xalqaro standartlarini joriy etish, innovatsion ilm-fan yutuqlarini amaliyotga tatbiq etishning samarali mexanizmlarini yaratish orqali mamlakatda ta‘lim tizimini isloh qilish bo‘yicha izchil ishlar amalga oshirilmoqda. 2020/2021-o‘quv yilidan boshlab O‘zbekistonda boshlang‘ich, o‘rta va o‘rta maxsus professional ta‘lim tizimida tegishli ta‘lim dasturlari joriy etilgan kasb-hunar maktablari, kollejlari va texnikumlardan iborat professional ta‘lim muassasalari tarmog‘i tashkil etildi.

Kasb-hunar maktablarning hududlar kesimida taqsimlanishi, birlikda (2020/2021-o'quv yili boshida)


Buxoro sh.	➔	1	Kogon sh.	➔	1
Buxoro t.	➔	1	Olot t.	➔	1
Vobkent t.	➔	2	G'ijduvon t.	➔	3
Jondor t.	➔	2	Kogon t.	➔	1
Qorako'l t.	➔	2	Qorovulbozor t.	➔	1
Peshku t.	➔	2	Romitan t.	➔	2
			Shofirkon t.	➔	1

Buxoro viloyati bo'yicha 2020/2021-o'quv yili boshida 20 ta kasb-hunar maktablari mavjud bo'lib, undagi o'quvchilar soni 4058 tani tashkil etadi, shu jumladan qizlar 997 kishidan iborat.

2021- yil mart



Kasb-hunar maktablarida ta'lim olayotgan o'quvchilarning hududlar kesimida taqsimlanishi (2020/2021-o'quv yili boshida)



2020/2021-o'quv yili boshida kasb-hunar maktablarida 4058 nafar o'quvchi tahsil olayotgan bo'lib, bu ko'rsatkich hududlar kesimida taqsimlanganida, boshqa hududlarga nisbatan o'quvchilarning yuqoriligi G'ijduvon tumanida – 604 nafar, Jondor tumanida – 425 nafar o'quvchi tahsil olgan.

2021- yil mart




Kasb-hunar maktablari o'qituvchi xodimlarining hududlar kesimida taqsimlanishi, kishi (2020/2021-o'quv yili boshida)



2021- yil mart


2020/2021- o'quv yili boshiga kasb-hunar maktablarida jami o'qituvchilar soni 317 nafarni (o'rindoshlarsiz) tashkil etgan. Shundan ayol o'qituvchi xodimlar 153 nafarni (48,3% i) tashkil etgan.

Bitta o'qituvchiga to'g'ri keladigan o'quvchilar soni, kishi (2020/2021-o'quv yili boshida)



Buxoro viloyati bo'yicha kasb-hunar maktablarida bitta o'qituvchiga (o'rindoshlarsiz) o'rtacha 13 nafar o'quvchi to'g'ri keladi. Bulardan, hududlar kesimida eng yuqori ko'rsatkich Buxoro tumanida qayd etilib, unda bitta o'qituvchiga o'rtacha 31 nafar o'quvchi to'g'ri kelgan bo'lsa, eng past ko'rsatkich Qorako'l va G'ijduvon tumanlariga ya'ni, bitta o'qituvchiga o'rtacha 9 nafar o'quvchi to'g'ri kelgan.


Kollejlarning hududlar kesimida taqsimlanishi, birlikda (2020/2021-o'quv yili boshida)



2021- yil mart



Kollejlarda ta'lim olayotgan o'quvchilarning hududlar kesimida taqsimlanishi, kishi (2020/2021-o'quv yili boshida)




Buxoro Viloyatida 2020/2021-o'quv yili boshida 15 ta kollejlarda 3941 kishi tahsil olayotgan bo'lib, bulardan 3199 nafarini qizlar tashkil etadi. Boshqa hududlarga nisbatan o'quvchilarning yuqoriligi Buxoro shahriga – 1245 kishi, eng past ko'rsatkich Kogon shahriga – 141 kishiga to'g'ri kelgan.


2021- yil mart



Kollejlar o'qituvchi xodimlarining hududlar kesimida taqsimlanishi, kishi
(2020/2021-o'quv yili boshiga, o'rindoshlarsiz)



Kollejlarda bitta o'qituvchiga to'g'ri keladigan o'quvchi soni, birlikda
(2020/2021-o'quv yili boshiga, o'rindoshlarsiz)



2020/2021-o'quv yili boshiga Buxoro viloyati bo'yicha jami kollejlarda 254 nafar o'qituvchi xodimlar faoliyat yuritmoqda. Buxoro viloyati bo'yicha kollejlarda bitta o'qituvchiga (o'rindoshlarsiz) o'rtacha 16 nafar o'quvchi to'g'ri keladi. Bulardan, hududlar kesimida eng yuqori ko'rsatkich Shofirkon tumanida qayd etilib, unda bitta o'qituvchiga o'rtacha 24 nafar o'quvchi to'g'ri kelgan bo'lsa, Kogon shahrida esa eng past ko'rsatkich, ya'ni, bitta o'qituvchiga o'rtacha 10 nafar o'quvchi to'g'ri kelgan.

2021- yil mart



Akademik litseylarning asosiy ko'rsatkichlari, birlikda (2020/2021-o'quv yili boshiga)

Buxoro viloyati bo'yicha jami 4 ta akademik litsey bo'lib, ulardan 3 tasi Buxoro shahriga, 1 tasi esa Qorako'l tumaniga to'g'ri keladi.


Jami o'quvchilar soni 2066 kishini tashkil etadi. Shu jumladan qizlar 735 kishidan iborat.

Akademik litseylarda 213 nafar o'qituvchi ta'lim beradi. Bitta o'qituvchiga to'g'ri keladigan o'quvchi soni 10 kishini tashkil etadi.




**Buxoro Viloyati
Statistika Boshqarmasi**

Texnikumlarining hududlar kesimida taqsimlanishi, birlikda
(2020/2021-o'quv yili boshida)



Texnikumlarda ta’lim olayotgan o‘quvchilarning hududlar kesimidagi taqsimlanishi, kishi (2020/2021-o‘quv yili boshida)




Buxoro Viloyatida 2020/2021-o‘quv yili boshida texnikumlarda 3307 nafar o‘quvchi tahsil olayotgan bo‘lib, o‘quvchilar hududlar kesimida taqsimlanganida boshqa hududlarga nisbatan o‘quvchilarning yuqoriligi Buxoro shahrida – (2261 kishini tashkil etgan) qayd etilgan.

2021- yil mart



Texnikumlar o'qituvchi xodimlarining hududlar kesimida taqsimlanishi (2020/2021-o'quv yili boshida)



2021- yil mart



Texnikumlarda ta'lim olayotgan talabalarning jinsi bo'yicha hududlar kesimida taqsimlanishi, % da
(2020/2021-o'quv yili boshida)

56,9

• Ayollar

43,1

• Erkaklar

2020/2021-o'quv yili boshida Buxoro viloyatida faoliyat yuritayotgan texnikumlarda jami tahsil olayotgan o'quvchilar 3307 nafarni tashkil etib, ulardan 56,9 % ni ayollar, 43,1 % ni erkaklar tashkil etdi.



Buxoro Viloyati Statistika Boshqarmasi
Ijtimoiy soha statistikasi bo'limi
Tel.: (65) 220-83-18

Buxoro Viloyati
Statistika Boshqarmasi

15